

**SALOHIDDIN MAMAJONOV – POETIK NUTQ VA USLUB  
TADQIQOTCHISI***Isaqova Gullola Abdullajon qizi**Farg‘ona davlat universiteti**filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Salohiddin Mamajonovning o‘zbek adabiyotshunosligida tutgan o‘rni, ayniqsa, poetik nutq va uslubni o‘rganishdagi ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Olimning badiiy matn tilini tahlil etish, poetik ifoda vositalarini aniqlash va ularning estetik funksiyasini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Salohiddin Mamajonov shaxsiyati, poetik nutq, uslub, munaqqid, adabiy jarayon, she‘riyat poetikasi, tadqiqotchi, ilmiy faoliyat, monografiya, tanqidchilik, lirik mahorat.

**KIRISH**

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Salohiddin Mamajonovning o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligini rivojlantirishda salmoqli hissasi bor. Yigirmadan ortiq kitob, necha yuzlab sermazmun maqolalar muallifidir. Uning tarixiylik va zamonaviylik, she‘riyat poetikasi, badiiy uslub va ijodkor olami muammolari hamda Cho‘lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziydan tortib, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azimgacha bo‘lgan o‘nlab atoqli va yosh avlodga mansub ijodkorlar haqidagi tadqiqotlari XX asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqidchiligi tarixida katta iz qoldirdi.

Ushbu maqolada Salohiddin Mamajonovning shaxsiyati, munaqqidlik, poetik nutq va uslub tadqiqotchisi sifatidagi faoliyati yoritib beriladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Salohiddin Mamajonov 1931-yil 15-dekabrda Andijon viloyatining Qo‘rg‘ontepa tumanidagi Qo‘rg‘ontepa qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ildi. Yosh olim 50-yillarning oxiridan adabiy jarayonda faol ishtirok eta boshladi. O‘zining taqrizlari, maqolalari bilan adabiy muhitda ko‘zga tashlandi. Ketma-ket “Shoir va zamonaviylik”(1963), “Uyg‘un”(1965), “G‘afur G‘ulom prozasi”(1966), “G‘ayratiy”(1974) asarlari, qator risolalari chop etildi. Salohiddin Mamajonov ijodiy faoliyati, qiziqish doirasi, tadqiqot obyekti keng olimlar jumlasiga mansub. Uning tadqiqot obyekti — XX asr o‘zbek adabiyoti deyish mumkin.

Salohiddin Mamajonov munaqqid sifatida adabiyot taraqqiyotining qonuniyatlari va uni tashkil qilgan o'zak muammolar bilan muttasil shug'ullanib keldi. O'zbek adabiyotining yirik vakillari Cho'lpon, Elbek, G'ayratiy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Uyg'un, Sharof Rashidov, Zulfiya ijodining yetakchi tadqiqotchilaridan biri darajasiga ko'tarildi. Tanqidchi sifatida Hamzadan boshlab to nodir iste'dod sohibi Abdulla Oripov, Sharof Boshbekov ijodigacha faol munosabat bildirdi. Hamid Olimjon haqidagi «Shoir dunyosi» kitobi rus (1972) va o'zbek (1974) tillarida chop etildi. Muallif bu asarida Hamid Olimjonning bosib o'tgan butun ijodiy yo'li - uning ilk to'plami «Ko'klam»ga kirgan she'rlaridan tortib, qator ballada va poemalarini, dramatik asari «Muqanna»ni davrma-davr, pog'onama-pog'ona tekshirdi. Bu borada shoir ijodida realizmning qaror topishi masalasiga alohida e'tibor berdi, san'atkor ijodining qudratli manbalarini izladi. Mamajonov joriy adabiy jarayonda deyarli yarim asr mobaynida faollikni qo'lida saqlab kelgan tanqidchilardan biridir. Matbuotda uning adabiy munozaralari, taqriz va maqolalari muttasil bosilib turdi. Olimning «She'riyat bahsida» (1970) kitobi bir necha o'n yillik mobaynida o'zbek she'riyatidagi ahvol, undagi rang-baranglikni o'tkir bahslar, tortishuvlar asosida tadqiq va talqin etilgan o'zbek tanqidchiligidagi dastlabki asarlardan biri sanaladi.

Olim tadqiqotlarida, XX asr o'zbek adabiyotining muayyan tarixi ham kuzatiladi. Bunga uning ko'p jildlik o'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlaridagi, 20-30-yillardagi adabiy jarayon, o'rganilgan ishlar, ikkinchi jahon urushi davridagi o'zbek adabiyoti masalalariga bag'ishlangan (1975) kitobi dalil bo'la oladi. Uning urush davri o'zbek adabiyoti haqidagi ishi hozirga qadar bu haqida yaratilgan asarlar orasida nisbatan to'la va keng tasavvur beruvchi yirik tadqiqotdir. Olimning bu tadqiqoti va U.O'ljaboyevning urush davri o'zbek adabiyoti haqidagi ishlari harbiy mavzudagi adabiyotimiz haqida atroflicha ma'lumot beradi. «Shoir Dunyosi» va «Ulug' Vatan urushi davrida o'zbek adabiyoti» kitoblari uchun Salohiddin Mamajonov Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi (1976). O'zbek adabiyoti tarixini monografik o'rganishda S.Mamajonovning katta hissasi bor. U ko'p jildli «O'zbek sovet adabiyoti tarixi»(1971), Moskvada nashr etilgan «O'zbek sovet adabiyoti tarixi»(1970), shuningdek, «Ko'pmillatli sovet adabiyoti tarixi» (1970) fundamental tadqiqotlarining mualliflaridan biridir.

Olimning o'zbek bolalar adabiyoti, adabiyot nazariyasi, adabiyot va folklorning o'zaro munosabati masalalariga bag'ishlangan qator ishlari mavjud. «Bolalar adabiyotida zamonaviylik va mahorat masalasi» nomli salmoqli maqolasida bu sohadagi erishilgan yutuqlar ta'kidlanishi bilan birga, bolalar poeziyasi sust rivojlanayotgani, mavzu va muammolar torligi, maydakashlik uning jiddiy kamchiligi ekani ko'rsatildi. Bolalar adabiyoti haqidagi izlanishlari samarasi sifatida muallifning

«Ezgu niyat yo‘lida» (1978) kitobi chop etildi. Linda bolalar adabiyoti vakillarining qator adabiy portretlari ham yaratildi.

Salohiddin Mamajonov ilmiy faoliyatining salmoqli va yetakchi qismini G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi haqidagi maqolalar va monografiyalar tashkil qiladi. Shoir she‘riyati va nasri atroflicha o‘rganilgan “Shoir va zamonaviylik” hamda “ G‘afur G‘ulom prozasi” nomli monografiyalarida tanqidchi shoirning zamon bilan doimo hamnafas bo‘lishga intilganini, zamon bilan birga ulg‘ayib, birga kamol topib borganini asarlari tahlili orqali ko‘rsatib berdi.

Tadqiqotchi olim shoirning qator asarlari, jumladan, “Vaqt”, “Sog‘inish”, “Sen yetim emassan” kabi mashhur she‘rlari tahlili asosida o‘zbek tanqidida hozirjavoblik, g‘oyaviylik, badiiylikdan iborat uchlik birikmasini ochib berdi.

Tadqiqotchi olim “Uslub jilolari” kitobida G‘afur G‘ulom uslubi haqida gapirar ekan, uning she‘rlarida Oybekda yoki Uyg‘unda bo‘lgan epik elementlar yo‘qligini, lirikasida uchraydigan tasviriy detallar nihoyatda siqiq bo‘lib, ko‘proq muqoyasa qilish maqsadida ishlatilganini yozadi. Misol tariqasida G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan” she‘rini tahlilga tortadi:

Nega cho‘chib tushding?  
Murgak tasavvur,  
Go‘dak hayolingga  
Nimalar keldi?  
Balki Odess dahshati,  
Kerch fojiasi,  
Yovvoyi mahluqlar,  
Qonxo‘r vahshiyalar...  
Mammasi kesilgan  
Sho‘rlik onaning  
Pajmurda gavdasi  
Ko‘zing o‘ngida  
Butun dahshati-la  
Aks etar endi.  
Onang xo‘rlandimi,  
Qayg‘urma, qo‘zim,  
Ko‘zim usti,  
Minnating boshimga durrra.

“G‘afur G‘ulom biror voqeani, manzarani chizish, ko‘rsatish yo‘lidan bormaydi, balki ana o‘shalar ta’sirida o‘zida tug‘ilgan tasavvur, fikr, o‘y-qarashlarni beradi”, -

deydi tadqiqotchi olim. Ya'ni, voqea, manzara(epik element) lirik qahramon kechinmasi bilan beriladi.

Munaqqid G'.G'ulomning qissalarini o'rganar ekan, poetikaning yetakchi muammolari sujet, xarakter, kompozitsiya, nutq turlari, badiiy til masalalarini markazga qo'yadi. 1972-yilda "Uslub jilolari" nomli kitobida G'.G'ulomning poetik merosi bir-birlariga bog'liq uch masala atrofida tekshiradi. Ulardan biri- shoirga ta'sir ko'rsatgan omillar, ikkinchisi – shoirning o'ziga xos uslubi, mahorati; uchinchisi- G'.G'ulom ijodining boshqa qalam sohiblariga ko'rsatgan ta'siri.

S.Mamajonov ijodiy faoliyatida o'zbek she'riyatini atroflicha tadqiq etish markaziy o'rinlardan birini tashkil qiladi. Yuzlab taqriz va maqolalaridan tashqari «She'riyat bahsida» kitobi kabi «Ranglar va ohanglar» (1978) kitobi ham poeziya masalalari va poetik asarlar tahliliga bag'ishlandi. «Lirik olam, epik ko'lam» (1979) nomli yirik monografiyasida tadqiqotchi Hamid Olimjon lirik mahorati va Sharof Rashidov epik olamini keng tarzda ochib berdi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Salohiddin Mamajonov keng qamrovli munaqqiddir. U o'zbek adabiyotidagi deyarli barcha adabiy janrlar rivojlanish jarayonini kuzatib bordi va ular haqida chuqur ilmiy tahlillarga boy adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Tanqidchi o'zbek she'riyati namunalarini nashr ettirishda qator ishlarni amalga oshirdi. Umuman olganda, Salohiddin Mamajonov o'zbek adabiyotshunosligi tarixida poetik nutq va uslub muammolarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etgan yirik munaqqid va nazariyotchilardan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Uning ilmiy merosi nafaqat XX asr o'zbek adabiy jarayonini tizimli o'rganishda, balki badiiy matn tahlilining metodologik asoslarini boyitishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamajonov tadqiqotlarida poetik nutqning individuallashuvi, uslubiy rang-baranglik, lirik va epik unsurlar uyg'unligi kabi masalalar izchil va dalillarga tayangan holda ochib berilgan bo'lib, bu yondashuv bugungi zamonaviy adabiyotshunoslik uchun ham dolzarb ilmiy konsepsiyalarni taqdim etadi. Ayniqsa, uning she'riyat poetikasi, badiiy til va uslubga doir qarashlari nafaqat milliy, balki umumjahon adabiy-estetik tafakkuri bilan hamohangligi bilan ajralib turadi.

Shu jihatdan, olimning ilmiy faoliyati va adabiy-tanqidiy merosi global adabiyotshunoslik kontekstida ham tadqiq etilishi zarur bo'lgan muhim ilmiy manba sifatida baholanishi mumkin. Uning ishlari poetik nutq va uslubni o'rganishda nazariy asos, metodologik yo'nalish hamda amaliy tahlil namunasi bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov B, Rasulov A, Qahramonov Q, Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. Mamajonov S. Saylanma. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'atnashriyoti, 1981.
3. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: Adabiyot va san'at, 1972.
4. O'zbek adabiy tanqidi ontologiyasi. – T.: 2011.
5. Rasulov A. Tanqid. Talqin. Baholash. – T.:
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

